

“MAORIF VA O‘QUTG‘UCHI” JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI

Muratova Aziza Kamilovna

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Adabiyotshunoslik: (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

azizakamilovna3141@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Vasliy, Siddiqiy Ajziy ijodiga bo‘lgan munosabat atroflicha izohlab berildi.*

***Kalit so‘zlar:** “Siddiq to‘g‘risida mulohazalar” nomli maqola, Vasliy, ijod, faoliyat;*

***Abstract:** In this article, the attitude towards the work of Vasli and Siddiqi Ajzi was explained in detail.*

***Keywords:** Article entitled "Remarks on Siddiq", Vasli, creativity, activity;*

***Аннотация:** В этой статье подробно изложено отношение к творчеству Васли и Сиддики Айзи.*

***Ключевое слова:** Статья «Размышления о Сиддики», Васли, творчество, деятельность.*

“Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalida o‘sha davrda hayot bo‘lgan yoki yaqin yillarda vafot etgan shoir, adib, olimlarning hayot yo‘li, ijodi, dunyoqarashi, umuman faoliyati to‘g‘risida ham bir qator maqolalar chop etilgan. Bunday maqolalar jumlasiga Vadud Mahmudning “Bugungi she‘rlarimiz va san‘atkorlarimiz” (1925-yil, 4-son), Hoji Muinning “Vasliy” (1925-yil 9-10-sonlar), Shokir Sulaymonning xalq shoirlari So‘fizoda va Hamza Hakimzoda haqidagi maqolalari (1926-yil 10-11-sonlari), Hodi

Zarifning “Xalq shoiri Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan” (1927-yil 7-8-sonlar), “Imzosiz” taxallusi muallifning “Fitratning ikki muhim kitobi” (1927-yil 12-son), “Tursunqul ismli muallifning “Siddiqiy to‘g‘risida mulohazalar” (1928-yil 3-son), “Laziz” taxallusi muallifning “Behbudiy” (1926-yil 2-son), nomli maqolalarini kiritish mumkin. Ushbu maqolalarda mualliflar so‘z yuritgan adib, shoir, olimning hayot yo‘li ijodi, ayrim asarlari haqida o‘zlari muhim deb hisoblagan ko‘pgina ma‘lumotlarni berib o‘tadi.

Bular ichida Tursunqulning “Siddiq to‘g‘risida mulohazalar” nomli maqola o‘zining hajm salmog‘i va ahamiyati jihatidan alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos Begali Qosimov o‘zining “Siddiq – Ajziy” nomli kichik tadqiqot ishida asosan Tursunqulning ushbu maqolasida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanadi⁶.

Maqoladada jonkuyar pedagog, iste‘dodli shoir, mohir tarjimon, jahongashta sayyoh, fidoyi marifat va madaniyat targ‘ibotchisi bo‘lgan Saidahmadxo‘ja Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiq – Ajziyning hayot yo‘li, ta‘lim maorif sohasida amalga oshirgan ishlari, yozgan she‘riy asarlari, qilgan tarjimalari xususida so‘z yuritiladi. Maqola muallifi Siddiqiy Ajziyning shaxs sifatidagi, ziyoli ma‘rifatchi sifatidagi qiyofasini shu qadar tiniq va aniq chizadiki, biz boshqa mualliflarning maqolalarida bu darajadagi aniqlik va batafsillikni uchratmaymiz. Muallif yozadi: “Men bunda jadid adabiyoti namoyondalaridan Siddiqiy to‘g‘risidagi ba‘zi bir mulohazalarni yozmoqchiman. Siddiqiy jadid shoirlari orasida birinchi qatorda turadigon siymolardandir. Siddiqiy mafkura va o‘ylashda o‘z chog‘dosh (zamondosh – M.A) va maslakdoshlardan yuqori turadi. Ul san‘atda adabiy ijodda ham o‘z davri shoirlardan oldinda. Ul eski va yangi jadid adabiyoti orasida bir ko‘prik tashkil qiladi va eski usulning shirin va yoqimli havolalarni bilan yangi navolarini eshittirmakchi bo‘ladi.”

Maqoladan keltirilgan ushbu parchada muallif Siddiqiy – Ajziyni o‘z zamondoshlari, safdoshlardan ajratib turuvchi bir necha fazilatlarini sanab o‘tmoqda:

1. Siddiqiy – Ajziy tafakkur va idrokda o‘z tengdoshlardan yuqori turishi;
2. San‘atda, badiiy ijodda ham ko‘pgina davradoshlaridan afzal ekanligi;

⁶ Begali Qosimov. Tanlangan asarlar. II jild. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. 2022.262-273 betlar.

3. Qadimiy adabiyotni yaxshi bilishi va yangi jadid adabiyoti yutuqlari bilan mumtoz adabiyot an'analarini o'z ijodida uyg'unlashtira olgan iste'dodli shoir ekanligi;

Maqola muallifi Siddiqiy – Ajziyning hayot yo'li haqida ham to'liq, aniq va ixcham ma'lumotlarini keltirib o'tadiki, undan keyin ushbu shoir ijodini o'rgangan deyarli barcha tadqiqotchilar Tursunqulning shu keltirilgan ma'lumotlaridan foydalandilar:

“Said Ahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927). Ismi Said Ahmadxo'ja, unvoni Siddiqiy, laqabi Ajziydir. 1864-yilda Samarqandda tug'ildi. Otasi Turkustonlidir va Amir Abu Said zamonida Samarqandga ko'chib kelmishdir...”

Tursunqul o'z maqolasida shu tarzda Siddiqiy Ajziyning butun hayot yo'li – qanday ilm olgani, haj safari davomida qanday yurtlarda bo'lgani, qanday vazifalarda xizmat qilgani, xullas, u haqdagi deyarli barcha zaruriy ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Tursunqul maqola Siddiqiy – Ajziy faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lgan pedagogik mahoratiga alohida to'xtaladi. Qishlog'i halvoyida yangi maktab ochgani, bu maktabni shoirning o'zi boshqarib, o'zi o'qituvchilik qilgani haqida ham zaruriy ma'lumot beradi.

Maqola muallifi bu maqolada faqatgina Siddiqiy Ajziy to'g'risidagi ma'lumotlarni berish bilan cheklanmaydi. Ayrim o'sha davr uchun qaltis bo'lgan fikrlarni ham aytadi. Masalan, Rusiya hukumatining adolatsiz demografik siyosati xususida yozadi: “1900-yildan boshlab Rusiya hukumati Turkistonda to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka siyosatini yurgiza boshlaydi. Qirg'iz dehqonlarining munbit va hosilli yerlari qo'llaridan olinib, o'zlari suvsiz dalalarga haydaldilar. Turkistonning bir ko'p joylariga rus mujiklari keltirib joylashdirildilar. Muhojirat yil sayin ko'paya boshladi...”

Tursunqul o'z maqolasida Rusiyaning adolatsiz milliy siyosati tufayli Turkistondagi mahalliy aholining kambag'al qatlamlarigina emas, hatto boylari ham zulm ko'rgani, katta-katta sarmoya egalari sinib, xonavayron bo'lgani haqida yozadi: “...Savdogar va boylar ham bu holga ma'ruz qoldilar. Yil sayin bankrutlar, sinishlar, mol va mulkdan ajralishlar, xonavayron bo'lishlar ko'paydi...”

Maqolada shuningdek, Siddiqiy Ajziyning she'rlari ham chuqur tahlil qilingan. Uning she'rlarida dunyo kezganligi, jahonning siyosiy vaziyatdan, mamlakatlar orasidagi nozik munosabatlardan xabardor bo'lganligi aks etib turishini ham maqola muallifi ta'kidlab o'tgan.

Tursunqul maqolasi avvalida Siddiqiy – Ajziyning 1901-yilda haj safariga borgan vaqtida Rossiyaning Jiddadagi konsulxonasida bir muddat tarjimon bo'lib xizmat qilganligini ham aytib o'tgan edi. Bu ma'lumot esa Siddiqiy – Ajziyning rus va arab tillarini juda yaxshi bilganligini anglatadi.

Maqolada shuningdek, Siddiqiy – Ajziyning 1918-yilda Samarqand viloyati adliya boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlaganligi to'g'risida ham ma'lumot bor. Maqola mazmunidan Siddiqiy – Ajziyning siyosiy ongi, dunyoqarashi juda keng bo'lganligi sezilib turadi.

Tursunqul o'z maqolasida Siddiqiy – Ajziyning qator she'rlarini tahlil qiladi. She'rlar tahlili davomida shoirning chuqur tafakkur va o'tkir zakovat egasi bo'lganligini qayta-qayta ta'kidlab o'tadi. Maqola muallifi Siddiqiy – Ajziyning "Mashrab" satirik jurnalida "Guna-guna", "Olmos", "Mayna" taxalluslari bilan qator hajviy she'rlari chop etilganligi, shuningdek mashhur rus yozuvchisi Nikolay Vasilevich Gogolning mashhur "Shinel" qissasini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgani to'g'risida ham ma'lumot berib o'tadi.

"Maorif va o'qutg'uchi" jurnalining 1928-yil 3-sonida bosilgan "Tursunqul" ismli muallifning "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar" maqolasida iste'dodli o'zbek ma'rifatparvar adibi, shoir, mohir tarjimon Said Ahmad Siddiqiy Ajziyning mo'jaz adabiy potreti yaratilgan deb aytilishi mumkin. Darvoqe, ushbu maqola Siddiqiy – Ajziy vafot etganidan rosa bir yil o'tib chop etilgan edi.

Jurnalning 1925-yil 9-10-sonlarida Hoji Muinning "Vasliy" nomli maqolasi chop etilgan. Ushbu maqola Samarqandlik ma'rifatparvar shoir, adib, olim, jonkuyar muallim Said Ahmad Vasliy Samarqandiyni yod etib yozilgan. Maqola shu yili (ya'ni 1925-yil) 29-oktyabrda Said Ahmad Vasliyning vafot etganini ma'lum qilish bilan boshlangan. So'ngra Vasliyning XX asr boshlaridan buyon xalqni ma'rifatli qilish,

usuli jadid maktablarini ochish yo‘lidagi jonbozliklari xususida so‘z boradi. Yangi ochilgan maktablar uchun darsliklar yozib ularni chop ettirishda ham Vasliyning xizmatlari katta bo‘lgani ta’kidlab o‘tilgan.

Keyin Vasliyning qisqacha tarjimayi holi beriladi: “Vasliy Samarqandda “Ko‘kmachit” gazarida 1287-hijriy (1869-milodiy) yilda dunyoga kelgan. Otasi usta kardigar (pichoq yasovchi) ekan. Vasliyning ibtidoiy tahsili Samarqandda Mirzo Abdulhamid oldida bo‘lgan. Vasliy o‘zining 14 yoshliq chog‘ida onasi bilan Toshkentga Abulqosim degan tog‘asining uyiga borib turgan. Shundagi “Ko‘kaltosh” madrasasida mulla Yaqub huzurida aqoidgacha o‘qigan. So‘ngra onasi bilan birga (1892-yilda) yana Samarqandga ko‘chib kelgan. Bir yildan keyin o‘qish uchun har yil Buxoroga borib-kelib yurgan. 1902-yilda Buxoroda xatmi kutub qilg‘on. Vasliy Buxoroda rasmiy darslarini qozi kalon Badriddin oldida o‘qug‘on bo‘lsa ham eng katta ustoz mullo Abduroziqcha bo‘lgan...”

Hoji Muin shundan so‘ng Vasliyning Buxoro madrasalarida bir muddat dars berganini, keyin esa Samarqandga ko‘chib kelib, shu yerda yashay boshlaganini aytadi.

Samarqand bu vaqtda Buxoro hukumati qo‘l ostida bo‘lmay, bevosita Rusiya hukumati tasarrufiga o‘tgan edi. Bizningcha, Vasliyni Samarqandga kelishga undagan sabablardan biri Buxoro madrasalaridagi eskirgan o‘qitish tizimi unga ma’qul kelmaganligida edi. Chunki u maktab-madrasalardagi ta’lim tizimini isloh qilish tarafdori edi. Vasliy faoliyatining islohotchilik qirrasini haqida maqolada quyidagilar aytilgan: “Vasliy afandi eski madrasalardagi tahsil va tadrus usulining kamchiliklarini boshlab tinglog‘onlardan, ham shuning islohiga doir o‘zbek matbuotida eng avval o‘z fikrini yozg‘on kishilardandir. 1907-yilda tatar olim va muharrirlaridan Abdurashid Ibrohimov Turkiston siyosatiga kelib Buxoroga tushganida, Vasliy unga Buxoro madrasalarining usulsizligi va hukumat idoralarining buzuqligi to‘g‘risida ma’lumot bergan edi. Sayyoh Abdurashid Ibrohimov Vasliydan olgan ma’lumotlarini o‘zining muhokama va tanqidlari bilan birga o‘sha vaqtda Qozonda chiqaturg‘on “Axbor” gazetasida nashr qilganida bu voqea butun Buxoro avomlarini g‘alayonga keltirgan edi.

Shuning natijasida Buxoro qozikaloni Vasliyini o‘z huzuriga chaqirib olib, qattiq urushganini eshitgan edik.”

Iqtibosdan ma‘lum bo‘lib turibdiki, Vasliy maktab-madrasalarda ta‘lim tizimini isloh qilish yo‘lida qat‘iy harakatlar qilgan. Mashhur tatar ma‘rifatparvari Abdurashid Ibrohimov bilan ham shu masalada suhbatlashgan.

Abdurashid Ibrohimov kelib chiqish Sibir tatarlaridan. 1857-yilda Tobolsk guberniyasining Tara shahrida tug‘ilgan. Shariat olimi, qozi, adib, sayyoh. Boshlang‘ich ta‘limni o‘z qishlog‘ida olgan. So‘ng Rossiyadagi madrasalarda tahsil olgan. 1879-1885-yillarda Madina, Makka va Istanbulda o‘qigan. 1897-yilda Turkiyaga boradi. 1897-1900-yillarda Istanbuldan Misrga, Falastinga, Hijozga, so‘ng Fransiya, Italiya, Avstrya, Serbiya va Bolgariyaga sayohat qiladi. 1907-yilda Sharqiy Turkiston, Samarqand, Buxoro va Yettisuvga sayohat qiladi. Shu sayohati davomida Vasliy Samarqandiy bilan uchrashib, suhbatlashadi. Umrining oxirgi yillarida Yaponiyada yashagan, 1944-yilda shu yerda vafot etgan va Tokiyoda dafn etilgan.

Shundan so‘ng Hoji Muin Vasliyning adib va noshirlik faoliyatiga to‘xtaladi. 1906-yildan boshlab Turkistonda chiqadigan har bir o‘zbekcha gazetada Vasliyning ma‘rifatga chorlovchi she‘r va maqolalari muntazam ravishda chop etib turilganini ta‘kidlab o‘tadi: “Vasliyning eng yaxshi ko‘raturg‘on ishlaridan biri darsgo‘ylik bo‘lsa, ikkinchisi asar yozib bostirish edi. Vasliy afandi o‘lganigacha shu ikki ishdan qo‘l tortmadi. Turli mavzuda o‘zi yozg‘on forscha, o‘zbekcha va arabcha asarlarining ko‘bisini o‘zi bostirib tarqatdi. Vasliy ulumi arabiyga mohir bo‘lib, ilm va fazli bilan Turkistonda anchagina shuhrat chiqorg‘on edi...”

Keyin maqola muallifi vasliyning o‘sha kungacha chop etilgan asarlarining ro‘yxatini keltiradi. Ro‘yxatdagi asarlar uch tilde o‘zbekcha, forscha va arab tilida yozilgan bo‘lib, umumiy soni 17 ta.

Ularning to‘qqiztasi fors tilida, ikkitasi arab tilida, qolgan oltitasi o‘zbek tilidagi asarlar. Bu asarlarning aksariyati maktab, madrasalar uchun yozilgan darsliklar, Vasliyning forsiy va turkey devoni, Jomiy “Bahoriston”ining o‘zbekcha tarjimasidan

iborat. Hoji Muin maqolasida Vasliyning nashr etilmay qolgan sakkizta asarining ro'yxatini ham keltiradi.

Maqola oxirida muallif Vasliyning bitta o'zbekcha, bitta forscha she'rini namuna sifatida keltirib o'tadi.

Hoji Muinning ushbu maqolasi hajman ixcham bo'lishiga qaramasdan Vasliy Samarqandiy haqidagi deyarli barcha ma'lumotlarni qamrab olganligi bilan o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Maqolada Vasliy biografiyasiga oid barcha ma'lumotlar keltirilgan. Uning dunyoqarashi, e'tiqodi, faoliyat yo'nalishi, tahsil olgan ustozlari va madrasalari, oilasi va undan qolgan farzandlari haqida ham zarur ma'lumotlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimov B. Tanlangan asarlar. II jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU. 2022.
2. Qosimov B. Hoji Muin qismati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2002-yil 19-iyul.
3. Siddiqiy — Ajziy, Tanlangan asarlar, T., 1973
4. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/809-kitob.html>. *Маориф ва ўқутғувчи» журнали, 1925 йил, 10-сон*
5. Siddiqiy Ajziy. Mir'oti ibrat. To'plamda: Milliy uyg'onish. T., 1993,
6. Tursunqul (Rahim Hoshim). Siddiqiy to'g'risida mulohazalar. Yuqoridagi to'plam, 86-95 betlar.
7. Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy. Milliy uyg'onish. To'plam. 1993.
8. G'.G'ulom. Vasliy. Mukammal asarlar to'plami. II tom.
9. Xo'jaeva M. Hamza va Vasliy. „Sharq yulduzi“, 1970, 2-son.
10. Xo'jaeva M. Shoir va mudarris Vasliy. O'zAS. 1990-yil 5-iyul.